

ABDULLA QODIRIY KICHIK EPIK ASARLARIDA PROFESSIONALIZMLAR

¹Cho'liyev.R.A.,

²Nazarova Soniya To'lqin qizi.

¹Buxoro viloyati, BuxDU PhD doktoranti,

²Rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7312489>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning ba'zi kichik epik asarlarida qo'llangan professionalizmlarning leksik-semantik va stilistik xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kichik epik asar, professionalizm, termin, nominativ va ko'chma ma'no, uslub.

Abdulla Qodiriy o'z asarlarida turli badiiy maqsadlarni amalga oshirish uchun bunday birliklardan juda samarali foydalanganiga guvoh bo'lish mumkin. Abdulla Qodiriy kichik epik asarlarida professionalizmlar juda ko'p uchraydi. Yana bir hodisaga diqqatni qaratish lozim. E.Qilichev shunday deydilar: "Professionalizmlar(jumladan,termin)ning til sistemasidagi va jamiyat a'zolari nutqidagi o'rni o'ta chigal masalalardan biridir.Chunki ma'um bir so'z ma'lum bir toifa(kasb egalari) uchun professionalizm, ayni zamondagi umumiste'moldagi so'z bo'lishi mumkin.(Masalan,"non" so'zi nonvoylar va butun jamiyat a'zolari uchun). O'zbek tilida so'zlovchilar ushbu so'zlarni ma'lum kasb-hunar nuqtayi nazaridan qo'llashda cheklaydi. Biz professionalizmlarni Abdulla Qodiriy kichik epik asarlari asosida tahlil qilganimizda quyidagi guruhlarga ajratdik: 1)chavandozlar va shu sohaga ma'lum darajada qiziquvchi shaxslar qo'llaydigan terminlar; "Qashlog'ichni oldim-da, qora qashqamni yalang'ochlab u yoq- bu yog'ini qashlab chiqdim". "-Quyushqoni ham o'rnida, egar ham yaxshi qo'ngan, qorinbog'i ham jips, yugan ham to'ralarnikidek! Lekin umildirig'ining yo'qligi biroz ko'nglimni g'ash qildi. Anchagina o'ylab turganimdan keyin, akamning yugan uchun asrab qo'ygan qayishi esimga tushib, sekingina yerto'ladan tushi haligi qayishni olib chiqib umildiriq yasadim". Ushbu matndagi "quyushqon", "qashlig'ich", "egar", "qorinbog'", "yugan", "umildiriq" so'zlari ot sohasi bilan shug'ullanuvchi shaxslar uchun professionalizmlardir. 2)diniy ilmdan xabardor va u bilan aloqador bo'lgan shaxslar qo'llaydigan terminlar; "Tunov kuni ikki chorakli salla boshimda, yuz bittalik tasbeh qo'limda, malla chopon egnimda ko'cha-bako'cha, guzar-baguzar kezib oxir zamon ishlarini birma-bir tomosho qilur edim". Ushbu matnda "salla", "tasbeh", "oxir zamon" so'zlari professionalizmlardir. 3)to'quvchilikka oid terminlar; "-Ha, aytkaningizdek hali ham kunimiz o'tyapti, baxtimizga kampir bor ekan, ip-u igna qilib ro'zg'orni tebratib turubdur,-dedim", "Yaxshi xotun sahar turub,

Charxini tovlar do'st bedonam". Ushbu gapdagi "ip", "igna", "charx" so'zlari terminlardir.

4) bog'dorchilikka oid terminlar. "Tirikchilik bilan ovora bo'lib, bog'ning poyasiga o'z vaqtida qarolmadim. Bir payt bog'ga bordim, tok juda ham o'sib ketgan, bardidan hatto ikki qarichgacha o'sib chiqqan edi. Shuning uchun ishkomlarni shitobroq tikkaytirishga to'g'ri kelar edi", "Istakni ozroq olgan ekanman".(30) "Bard" so'zi "O'zbek tilining izohi lug'ati"da yo'q, ammo yozuvchining o'zi "tokning bandlari" tarzida izohlagan. "Istak II. Tok novdalarini bog'lash uchun ishlatiladigan tol novdasi. Bog' ochilganiga olti kun bo'ldi, bog'bonning qo'lida istak. Said Ahmad "Kolxozda bahor".

5) polizchilikka oid terminlar. "Ovul yashilcha(ko'kat) jihatdan juda kambag'al. Bunda piyoz, bodring, sabzi, karam, qizilcha va shu singari ekinlar ekilmaydi deyarli"(101).

6) chorvachilikka oid terminlar. "-Issiq kunda ochiqib kelsa kerak, G'irvonning muzdek ko'k bedasini yeb, yemini paqqos urib to'yib olsin qora ayg'ir! - deydi. Orasida "qora ayg'ir"ning ko'k beda bilan kifoyalana olmasligini ehtimol tushunuvchilar ham bo'ldi. -To'ymasa, mana ellik pud arpani ham oldiga qo'yamiz" - dedi g'irvonliklar"(105).

7) dehqonchilik bilan bog'liq terminlar ham uchraydi. "Mallaboy aka: "O'z boshimga ishlagan yillarda bir kunlik yerdan o'n besh qopga yetkazib hosil olganman, - deydi. G'irvon va atrof dehqonlarining istilohicha bir kunlik tanob yer 120 pud paxta berishi kerakdir". Ushbu matnga diqqat qiladigan bo'lsak, ko'p ma'noli so'z sifatida qaraladigan "yer" so'zini ham "ekish maydoni" semasi asosida professional tushunadilar. O'zbek tili lug'at tarkibining ma'lum bir bo'lagini tashkil etgan professionalizmlar nominativ va ko'chma ma'nolarini izohlash, kasb-hunar so'zlaridagi sinonimiya hodisasi va ularning stilistik tabiatini aniqlash muhim lingvistik ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ma'lum bir yozuvchi ijodidagi, uning badiiy asarlaridagi professionalizmlarni o'rganish tasvirlanayotgan davr til xususiyatlarini o'rganishda ko'maklashadi. Jumladan, Abdulla Qodiriy asarlaridagi professionalizmlarning ko'pchiligi nominative xarakterga ega bo'lsa, ularning ba'zilari sinonimik va polisemantik vazifasini bajarib kelgan. O'zbek yurti azaldan hunarmand va turli kasb-hunarlarining makoni bo'lib kelgan. Bu yerda bir qator sohalar taraqqiy etgan. Shu yurtda tug'lib ijod qilgan Abdulla Qodiriy ana shu zamindagi voge-hodisalarni qalamga oladi va shu bilan bog'liq qator soha odamlarining tipik obrazini yaratadi. Ma'lum bir shaxsning to'laqonli obrazini yaratishda uning kasb-koriga murojaat etish ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy asarlarda kasb-hunarga oid so'zlarning ishlatilishi u yoki bu yozuvchining xohishi bilan emas, balki mantiqiy va zarur bo'lgan talab nuqtayi nazari hamda tilning o'ziga xos qonuniyatlaridan kelib chiqadi. Ya'ni

yoʻzuvchi voqelikni tasvirlar ekan, shu voqelik bilan bogʻliq boʻlgan soʻzlarni ham qoʻllashi tabiiy holdir. Ikkinchidan, professionalizmlar badiiy adabiyotda qoʻllanilishi adabiy til bilan ushbu terminlarning oʻzaro yaqin boʻlgan munosabatda boʻlishidandir. Chunki bular oʻzaro uzluksiz boʻlib, doimo bir-birini toʻldirib, boyitib boradi. Koʻpincha umumisteʼmoldagi soʻzlar ixtisoslashib atama-terminlarga aylanadi. Ana shu professionalizmlar tasvirlayotgan voqea-hodisani aniq ifodalash, qahramonlarni individuallashtirish, shuningdek, tasvirning obrazlilikini, tasvir doirasini kengaytirish, kuchaytirish maqsadida qoʻllanadi. Abdulla Qodiriy asarlaridagi kasb-hunar soʻzlari xilma-xil boʻlib, ularning badiiy matn tarkibida qoʻllanilishi har jihatdan maqsadga muvofiqdir. Personajlarning yoʻzuvchi tomonidan chizilgan tashqi kiyim-bosh portretlari ularning maʼlum bir kasb-hunarga mansubligini koʻrsatib turadi. Quyidagi parchaga diqqatni qarataylik: “Bozorga qarab borur erdim.Yonimda xuddi qoʻgʻirchoqning bolasidek oʻruscha kiyim kiyib yosongʻon, qoʻlida choʻchqa terisidan yosolgʻon narsaga kitoblar solgʻon 12 yoshlar chamaliq bir qiz bola shipillab oʻtib ketadi”(31), “Ha, Abjal, choʻqindingmi,shapkani qanchaga olding?! – dedim. Tagi musulmon bolasi emasmi, bir oz qizardi. –Yoʻq, taqsir... milisiyalarga yaqinda shunaqa kiyim berishdi, - dedi”(31), “Tunov kun ikki chorakli salla boshimda, yuz bittalik tasbeh qoʻlimda, malla chopon egnimda koʻcha-bakoʻcha, guzar-baguzar kezib oxir zamon ishlarini birma-bir tomosho qilur edim”(30). Chizilgan ushbu portretlar kitobxonda ayni zamonda turlicha emotsional munosabat hosil qiladi, uni estetik taʼsirlantiradi. Professionalizmlar koʻchma maʼno ifodalaganda ulardagi uslubiy boʻyoʻq yanada yaqqol namoyon boʻladi.Kasb-hunarga oid soʻzlar koʻchma maʼno ifodalaganda semantik nuqtayi nazaridan yana oʻzgaradi, yaʼni ikki voqelik bir nom bilan ataladi.Natijada hissiy taʼsirchanlik yana-da oshadi. Emotsional taʼsirchanlik ottenkasi kishilarning nutq jarayonida predmet yoki voqea-hodisaga boʻlgan munosabatini ifodalaydi:”-Kuda Injil, toporish?(Qurʻon qayerda, oʻrtoq?)-dedim. Faqirni bu balogʻati lisonda koʻrgach, ha, dovdiramasi ekan zantaloq, bedin!”(35). “Injil”ni “Qurʻon” deb tushunadi, bu orqali yoʻzuvchi qahramonni individuallashtiradi, kulgili holat yaratadi. Har bir hududning mahalliy hunarmandlari oʻzlarining ishlabchiqarish qurollariga, oʻziga xos shugʻullanish sohalariga ega boʻladilar va bularni oʻz shevalariga xos soʻzlar bilan atayveradilar. Boshqacha qilib aytganda, professionalizmlarda ham sheva muhri mavjud boʻlib, bu xususiyist ularni ilmiy va boshqa terminlardan ajratib turadi. Bu holni payqay olgan Abdulla Qodiriy shevadagi variantiga ega boʻlgan, ikki nom bilan aytiluvchi ayrim professionalizmlarni keltirib, oʻz asarlarida mahalliy koloritni ham bergan.

“Yana erta bilan soat beshlarda choy va igmak(non)ni yeb-ichib qir ishlariga yugura beradi”, “Shu vaqtda ovulning kutuvi-da(podasi) yaylovdan qaytib, sigirlar buzovlarni sog’inib ma’raydilar, sariq(qo’y)lar qo’zilarini qo’msab baaabuu qiladilar”. “ Mana men, malaylarim mening uchun yasab qoldirg’on shu-shu kolxozda ishlayim, - dedi va bir oz to’xtab turdi, shulay, shulay, kolxoz ali chachka(gullamoq) atib jrtmagan(99-100). “Non”, “poda”, “qo’y”, “gullamoq” so’zlari qipchoq lahjasida “igmak”, “kutuv”, “sariq”, “chachka” tarzida qo’llangan. Yuqorida aytib o’tilganidek, professionalizmlar personaj nutqini xarakterlash uchun ham qo’llanadi. Bu jihatdan “Tinch ish”, “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan”, “Toshpo’lat tajang nima deydi?” kabi asarlaridagi holatlar juda ko’p dalil bo’la oladi. Shunday qilib, Abdulla Qodiriy asarlari lug’at tarkibining bir qismini kab-hunar so’zlari tashkil qiladi. Professionalizmlar muallif nutqida nominative vazifa bajargan bo’lsa, personajlar nutqida semantik- uslubiy vazifa bajaradi. Tilimizda proffessionslizmlar juda muhim ahamiyatga ega.Kasbhunarga oid atama va terminlar inson ruhiyatini belgilab beruvchi bir factor sifatida juda muhim omil bo’lib xizmat qiladi.Har bir badiiy asarda shaxs ishtirokining zarurligi talab etilar ekan, bunda uni atroflicha tasvirlash, uning xususiyatlarini ochishda professionalizmlar zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Qodiriy.A. Kichik asarlar. T.: Gafur G’ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti. 1969,-213b.
- 2.Qilichev.E. O’zbek tilining praktik stilistikasi. T.: 1985.
- 3.Shoabdurahmonov.Sh. Hozirgi o’zbek adabiy tili. T.:1981.
- 4.Tursunov.U. Hozirgi o’zbek adabiy tili.T.: O’zbekiston,1992,-399b.
- 5.Qo’ng’urov.R, Begmatov.E, Tojiyev.Yo. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. T.: O’qituvchi, 1992.